



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 80-86 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DAVLAT BUDJETIGA UNDIRILGAN BOJXONA TO'LOVLARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI



Muqimov Asrorjon Rasulovich

Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi,

e-mail: asrorjon.mukimov.0505@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada bojxona organlari tomonidan davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari va unga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili bayon etilgan. Izlanishlar natijalari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bojxona to'lovlari, imtiyoz va preferensiyalar, import hajmi, trend model, ekonometrik modellar, natijaviy omil, o'zgaruvchi omillar.

Аннотация: В данной научной статье описан эконометрический анализ таможенных платежей, взимаемых в государственный бюджет таможенными органами, и факторов, влияющих на него. По результатам исследований даны научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: таможенные платежи, льготы и преференции, объем импорта, трендовая модель, эконометрические модели, фактор результата, переменные факторы.

Abstract: This scientific article describes an econometric analysis of customs payments collected into the state budget by customs authorities and the factors influencing it. Based on the research results, scientific proposals and practical recommendations are given.

Keywords: customs payments, benefits and preferences, import volume, trend model, econometric models, outcome factor, variable factors.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyatning faol rivojlanishi sharoitida bojxona to'lovlari davlat budjetining daromad qismini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat budjetga pul tushumini ta'minlovchi fiskal vosita sifatida, balki tashqi savdoni tartibga solish, ichki bozorni himoya qilish va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan bojxona to'lovlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, shuningdek, ularni undirish samaradorligini baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentyabrdagi "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmonning "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" ustuvor yo'nalishining "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish" nomli 46-maqsadida — "Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash" vazifasi belgilab berildi [1].

Mazkur holatda bojxona to'lovlari tushumining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish nafaqat iqtisodiy siyosatni optimallashtirish, balki bojxona xizmatlarini modernizatsiya qilish va xalqaro savdo jarayonlariga moslashtirish nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tadqiqot davomida Maria-Carmen Guisanning (2008) "An econometric model of industry, foreign trade, and economic development in Philippines, 1990-2006" [2] maqolasidan, shuningdek, T.N.Pardayev va O.A.Sarmanovlar tomonidan bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlili va ularning qisqa muddatli prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlaridan [3-7] foydalanildi.

Metodologiya

Maqolada bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish uchun ekonometrik tahlil usullari qo'llaniladi: korrelyatsion tahlil va ko'p o'zgaruvchili chiziqli regression tahlil.

Tahlil va natijalar

Davlat budjetiga undiriladigan bojxona to'lovlarini o'rganishda ekonometrik usullardan foydalanish moliyaviy-iqtisodiy tahlil sifatini oshirishga va bojxona-tarif siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada bojxona to'lovlari hajmining asosiy makroiqtisodiy va tashqi savdo ko'rsatkichlariga bog'liqligini aks ettiruvchi ekonometrik modelni tuzish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu ta'sirlarni o'rganish uchun ko'p omilli ekonometrik model tuzish, uni turil mezonlar va testlar asosida tahlil qilish va kelgusi davrlarga prognoz qilish masalalari maqsad qilib olingan. Ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashadigan natijaviy omil bo'lib, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari, mlrd. so'm (Y) hisoblanadi. Ushbu omilga ta'sir etuvchi omillar bo'lib esa – import hajmi, mln. AQSH doll. (X1), soliqqa tortiladigan import hajmi, mln. AQSH doll. (X2), bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar, mlrd. so'm (X3), importyorlar soni, birlik (X4), import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi, foiz (X5) hamda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, foiz (X6) hisoblanadi.

Dastlabki bosqichda ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashuvchi o'zgaruvchilar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazamiz. Quyida keltirilayotgan 1-jadvalda ko'p omilli ekonometrik modelga kiruvchi o'zgaruvchilarning hisoblangan tavsifiy statistika natijalari keltirilgan.

1-jadval

Omillar bo'yicha tavsifiy statistika natijalari¹

	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6
Mean	4940.895	2226.568	2022.796	3510.758	1652.400	10.62000	17.85000
Median	3898.659	1557.525	741.5904	2772.983	1243.000	8.000000	20.00000
Maximum	13163.42	8619.337	7548.764	20127.13	8296.000	14.80000	20.00000
Minimum	317.3612	1904.874	782.9165	18822.73	4811.000	4.100000	12.00000

¹ Muallif ishlanmasi

Std. Dev.	4854.606	3207.064	2651.187	9683.283	3203.107	4.139565	3.107882
Skewness	0.627033	0.465855	0.761226	-0.160922	0.209771	-0.074961	-0.935133
Kurtosis	1.936673	2.154058	2.264154	3.614108	3.328599	1.311884	2.242107
Jarque-Bera	1.689591	0.989813	1.787080	0.300445	0.177496	1.795133	2.545188
Probability	0.429645	0.609628	0.409205	0.860516	0.915076	0.407560	0.280104
Sum	74113.42	33398.52	30341.94	52661.37	24786.00	159.3000	267.7500
SumSq. Dev.	3.30E+08	1.44E+08	98403074	1.31E+09	1.44E+08	239.9040	135.2250
Observations	16	16	16	16	16	16	16

Jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Deviation) — standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga kiruvchi omillarni tanlashda omillar o'rtasida bog'lanish zichliklarini aniqlash muhim hisoblanadi. Buning uchun natijaviy va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida korrelyatsiya tahlili o'tkaziladi. Ushbu hisob-kitoblar jarayonida omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanadi. Omillar o'rtasida hisoblangan xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Omillar o'rtasida hisoblangan korrelyatsion matritsa²

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 01/25/26 Time: 01:18

Sample: 2010 2025

Included observations: 16

Correlation

t-Statistic

Probability	Y	X1	X2	X3	X4	X5	
Y	1.000000						
X1	0.683552	1.000000					
	3.376593	-----					
	0.0050	-----					
X2	0.901229	0.647311	1.000000				
	7.498529	4.208105	-----				
	0.0000	0.0009	-----				
X3	0.687492	0.671378	0.586234	1.000000			

² Muallif ishlanmasi

	3.413377	3.389576	2.316410	-----			
	0.0045	0.0044	0.0648	-----			
X4	0.739111	0.674726	0.679725	0.575423	1.000000		
	3.906498	3.420543	3.49726	2.563731	-----		
	0.0016	0.0041	0.0036	0.0675	-----		
X5	-0.731329	-0.229521	-0.580378	-0.656877	-0.529588	1.000000	
	-3.866200	-0.882346	-2.269552	-3.219226	-2.059037	-----	
	0.0019	0.3925	0.0644	0.0341	0.0691	-----	
X6	-0.761997	-0.376512	-0.630187	0.112502	0.042432	0.492994	1.000000
	-4.242596	-1.465366	-2.926380	0.408223	0.153128	2.043042	-----
	0.0010	0.1666	0.0118	0.6898	0.8806	0.0619	-----

Omillar o'rtasida hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyentlari joylashgan 2-jadvaldan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari — bu natijaviy omil ($\ln Y$) va unga ta'sir etuvchi omillar ($\ln X_i$) o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida turli xil bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Masalan, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va import hajmi (X_1) o'rtasida hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,6835 ga teng. Bu mazkur omillar o'rtasida o'rtachadan yuqori bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va soliqqa tortiladigan import hajmi (X_2) o'rtasida hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9012 ga teng. Mazkur omillar orasida zich bog'lanish mavjud ekan. Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar (X_3) o'rtasida o'rtachadan yuqori bog'lanish mavjud ekan. Chunki, ushbu omillar o'rtasidagi hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,6875 ga teng. Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va importyorlar soni (X_4) o'rtasida kuchli bog'lanish mavjud ekan. Chunki, ushbu omillar o'rtasidagi hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,7391 ga teng. Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi (X_5) o'rtasida kuchli teskari bog'lanish mavjud ekan. Chunki, ushbu omillar o'rtasidagi hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti -0,7313 ga teng. Shuningdek, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (X_6) o'rtasida kuchli teskari bog'lanish mavjud ekan. Chunki, ushbu omillar o'rtasidagi hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti -0,7619 ga teng.

Yuqorida keltirilgan 2-jadvalda juft korreksiya koeffitsiyentlari ham mavjud bo'lib, ular ta'sir etuvchi omillar (X_i , X_j) o'rtasida bog'lanish zichliklarini ko'rsatadi. Bu yerda eng muhim holat bo'lib, ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi kerak. Ya'ni, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud bo'lmasligi lozim. Agar ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikollinearlik mavjud deyiladi. 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari 0,7 dan katta emas ekan. Korrelyatsion matritsadagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emas.

Bundan tashqari, 2-jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchliligi va ehtimoligini aniqlash bo'yicha koeffitsiyentlar hisoblangan (hisoblagan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining pastida joylashgan qatorlardagi qiymatlar). Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning t-Styudent mezonini hisoblangan qiymati va ehtimoligi keltirilgan. Omillar o'rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo'lmaslik sharti qo'yiladi. Masalan, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) va soliqqa tortiladigan import hajmi (X1) o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti, va ga teng. Bu esa mazkur ikki omil o'rtasida zich bog'lanish mavjudligini, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli ekanligi va 95 foiz aniqlikda ikki omil o'rtasida musbat bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi.

Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari bo'yicha ma'lumotlar asosida hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model (4) shuni ko'rsatadiki, import hajmi (X1) o'rtacha bir mln. AQSH dollariga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,278 mlrd. so'mga ortar ekan. Soliqqa tortiladigan import hajmi (X2) o'rtacha bir mln. AQSH dollariga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 1,554 mlrd. so'mga ortar ekan. Bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar (X3) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,262 mlrd. so'mga ortar ekan. Importyorlar soni (X4) o'rtacha bir birlikka ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,381 mlrd. so'mga ortishi mumkin ekan. Import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi (X5) o'rtacha bir foizga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 256,1 mlrd. so'mga kamayar ekan. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (X6) o'rtacha bir foizga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 369,6 mlrd. so'mga kamayar ekan.

Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari bo'yicha hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model (4) sifatini tekshirish uchun hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti qiymatini ko'rib chiqamiz. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil (Y) necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Bizning holatda hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R^2 — R-squared) 0,9204 ga teng. Bu esa davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) 92,04 foizga (4) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 7,96 foizi ($1,0 - 0,9204$) esa hisobga olinmagan omillar ta'siridir.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (4) omillarning standart xatoliklarining ham kichik qiymatlarni qabul qilganligi hisoblangan modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model natijasida davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo'lamiz (1-rasm).

1-rasm

**Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining
2010-2025-yillardagi dinamikasi va 2026-2030-yillardagi prognoz qiymatlari, mlrd so'm**



Prognoz natijalaridan ko'rinadiki, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari miqdori 2030-yilga kelib 2025-yilga qaraganda 1,5 barobarga yoki 36,4 trln so'mga ortishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlar natijasida bojxona to'lovlariga bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi aniqlandi.

Amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijasida ishlab chiqilgan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki:

- import hajmi (X1) o'rtacha bir mln. AQSH dollariga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,278 mlrd. so'mga;
- soliqa tortiladigan import hajmi (X2) o'rtacha bir mln. AQSH dollariga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 1,554 mlrd. so'mga;
- bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar (X3) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,262 mlrd. so'mga;
- importyorlar soni (X4) o'rtacha bir birlikka ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,381 mlrd. so'mga ortishi ehtimoli aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillardan samarali foydalanish, mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini va fiskal barqarorligini ta'minlash uchun hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158 Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Maria-Carmen Guisan, "An econometric model of industry, foreign trade, and economic development in Philippines, 1990-2006". Journal of International Trade Studies, 2008.

3. T.N.Pardayev. Bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili. O'zbekiston Bojxona axborotnomasi. 2024-yil.
4. O.A.Sarmanov. Customs payments received to the state budget and econometric analysis of factors affecting it. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 -0892 Vol14 Issue-01, June — 2024, (p. 163-168).
5. Nosirovich, T. P., Rixsibayevich, A. S., & Adiljonovich, S. O. (2021). Prospects for increasing the effectiveness of the application of privileges and preferences from customs duties. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(7), 69-76.
6. Adiljonovich, S. O. (2025). O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARI TUSHUMINING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 249-256.
7. САРМАНОВ, О. А., & ФАРХОДОВ, Ф. Ф. БОЖХОНА ЙИҒИМЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ ВА УНДИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Тулкин Насирович ПАРДАЕВ.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

